

BOLALARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Egamqulova Iroda Safar qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

E-mail: abduazimovairoda@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalarda kreativlikni shakllantirishda fanlararo integratsiyaning ahamiyati hamda undan foydalanishning turli usullari haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: bolalar, kreativlik, kreativ tafakkur, integratsiya, metod, integratsiya.

THE SIGNIFICANCE OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN THE FORMATION OF CHILDREN'S CREATIVITY

ABSTRACT

This article describes the importance of interdisciplinary integration in the formation of creativity in children and different ways of using it.

Keywords: children, creativity, creative thinking, integration, method, integration.

ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о значении межпредметной интеграции в формировании творческих способностей детей и различных способах ее использования.

Ключевые слова: дети, творчество, творческое мышление, интеграция, метод, интеграция.

Bugungi butun dunyoda roʻy berayotgan globallashuv jarayonida mamlakatimiz yanada taraqqiy etib borishi uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo etmoqda va bu borada koʻplab ishlar olib borilmoqda. Xususan, bugungi kunda boshlangʻich taʼlim tizimini tubdan isloh qilish borasida koʻplab ishlar

olib borilmoqda. Bugungi kundagi ta'lim jarayonini integratsiyasiz tasavvur eta olmaymiz. Ayniqsa bu jarayon bolalardagi kreativlikni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik so'zi ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik lotincha "create"- yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor degan ma'nolarni ifodalaydi. Kreativlik- individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Integratsiya-ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdanoq Spenser tomonidan izohlangan edi.

Professor R.A.Mavlonova shunday yozadi: "Integratsiya - "butun" degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qismi va integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik. <<Integratsiya>>so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, <<integer>>butun so'zidan kelib chiqqan.

Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi.

Materiallar tahlilining ko'rsatishicha, bolalarda kreativlikni rivojlantirishda hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama harakterga ega bo'lib o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi,

ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo, bu ta'lim jarayoni to'liq o'qituvchining hukmronligi ostida degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'lmasligi kerak. Zamonaviy ta'lim berishning talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishgina bo'lib qolmasdan balki shaxsning umumiy ijtimoiy- madaniy qobiliyatlarini shakllantirishga ham qaratilishi lozimligini unutmazlik lozim. Izlanishlar natijasiga ko'ra bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash:

- bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish:
- bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etish uchun imkoniyat yaratish:
- bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.
- Quyidagi omillar shaxsda kreativlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi:
- o'zini tavakkaldan olib qochish:
- fikrlash va xatti-harakatlariga nisbatan qo'pollik bilan javob qaytarish:
- shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi:
- boshqalarga tobe bo'lish:
- har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

REFERENCES:

1. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotining muhim omili. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Yangi yil arafasida – 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilmfan namoyandalari bilan uchrashuvi). “O'zbekiston ovozi” gazetasi 1(32.216) 1-yanvar 2017-yil.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016.
3. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'lanma. –T.: Fan, 2005, 66 b.
4. Nusratova H. (2021, October). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish: DOI:10.53885/edinres. 2021.80.81.021 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lim fanlari kafedrasida dotsenti, Phd. In Научно-практическая конференция.
- 1%.Nusratova H. Egamqulova I. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH 21 ASR TALABI DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7424038>